

# TARIX



1. Ushbu qiyofadagi odam qaysi davrda yashagan?  
A) o'rta paleolit B) so'nggi paleolit  
C) mezolit D) neolit

2. Quyidagi javob variantlarida keltirib o'tilgan qo'zg'olnlardan qaysi biri podsho hukumatining jabr-zulmiga qarshi bo'lib o'tgan? (XIX asr oxirida)  
A) Ernazarbiy qo'zg'oloni  
B) Dinnosirbek qo'zg'oloni  
C) Matyoqub pishiq qo'zg'oloni  
D) Bobo Go'khan qo'zg'oloni

3. Quyidagi siyosiy arboblardan qaysi biri 1938-yili Myunxen kelishuvini imzolamagan?  
A) Adolf Hitler B) Winston Churchill  
C) Eduard Dalade D) Benito Mussolini

4. Podsho hukumati bosqini natijasida tashkil etilgan Turkiston viloyati (a) hamda Farg'ona viloyati (b)ning birinchi gubernatorlarini aniqlang.  
1) fon Kaufman; 2) F. Romanovskiy;  
3) M. Skobelev; 4) M. Chernyyayev; 5) Abramov.  
A) a-1; b-2 B) a-2; b-4 C) a-5; b-3 D) a-4; b-3

5. Quyidagi hududlardan qaysi birining joylashuv o'rni noto'g'ri berilgan?  
A) Afrosiyob – hozirgi Samarqandning sharqiy chegarasi hududlarida mil.avv. VIII–VII asrlarda asos solingan qadimiy shahar xarobalaridir.  
B) Fransiya qiroli Filipp II davrida qirol mulkligiga mamlakat janubidagi Tuluza grafligi ham qaytarilgan.  
C) Koguryo qirolligi – IV–V asrlarda Koreya yarimorolining shimoliy qismi, qo'shni Lyaodun yarimorolini egallagan yirik davlat bo'lgan.  
D) O'rta asrlar Yevropasining eng mashhur yarmarkasi Fransiyaning g'arbidagi Shamp'an grafligida bo'lgan.

6. Bugungi kunda O'zbekistonda rasman 3 ta xotira kuni mavjud bo'lib, ularni aniqlang.  
1) 23-fevral; 2) 9-may; 3) 27-iyun;

4) 31-avgust; 5) 2-sentabr; 6) 6-noyabr.  
A) 1, 2, 5 B) 2, 3, 6 C) 2, 4, 5 D) 1, 3, 6

7. 1944-yilda antitler koalitsiyasi qo'shinlari qaysi davlatlarni ozod qilgach, urush Germaniyaning o'z hududlariga yetib keldi?  
A) Polsha va Avstriya  
B) Finlandiya va Norvegiya  
C) Fransiya va Belgiya  
D) Chexoslovakiya va Daniya



8. Ushbu karikaturada qaysi jarayon tasvirlangan?  
A) quzdorlik  
B) majburiy mehnat  
C) reparatsiya zulmi  
D) soliqlar og'irligi

9. BXSRning dastlabki hukumati tarkibida Mukammal Burhonov qanday lavozimni egallagan?  
A) savdo va sanoat noziri B) maorif raisi  
C) favqulodda komissiya raisi D) adliya noziri

10. Yevropa davlatlari o'rtasida o'rtasida Turkiyaga qarshi "Muqaddas Liga" hamda Yevropada kelgusida ro'y berishi mumkin bo'lgan inqiloblarga qarshi birgalikda kurash maqsadida "Muqaddas ittifoq" tuzilgan yillarni belgilang.  
A) 1648-, 1814-yillar B) 1684-, 1815-yillar  
C) 1683-, 1812-yillar D) 1675-, 1813-yillar


11. O'rta Sharqning eng yirik iqtisodiyotiga ega bo'lgan industrial mamlakatini aniqlang.  
A) Turkiya B) Misr C) Isroil D) Eron

12. Yunon-fors qo'shinlari o'rtasida Plateya jangi bo'lib o'tganidan yarim asr o'tib hukmronligi yakuniga yetgan shaxsni ko'rsating.  
A) Makedoniya podshosi Filipp II  
B) Sparta podshosi Leonid  
C) Afina strategi Perikl  
D) Rim hukmdori Mag'rur Tarkviniy



13. O'rta asrlar tarixida nomi qayd etilgan quyidagi qishloqlardan qaysi biri Samarqand hududida joylashgan?  
A) *Zamaxshar* B) *Qasri Hinduvon*  
C) *Biyo* D) *Moturid*

14. 1540-yilda tuzilgan "Iso jamiyati"ning asoschisi Ignatiy Loyolaning vatani xaritada nechanchi raqam ostida berilgan?



A) uchinchi raqam B) birinchi raqam  
C) ikkinchi raqam D) to'rtinchchi raqam

15. Qaysi davlat tarixida "12 jadval qonunlari" qabul qilingan?

A) *Qadimgi Misr* B) *Koreya* C) *Vizantiya*  
D) *Qadimgi Rim*

16. XIX asr oxiriga kelib, Afrika qit'asining qancha qismi mustamlakachilar qo'liga o'tganini aniqlang.

A) *qariyb yarmi* B) *1/4 qismi*  
C) *70 foizi* D) *90 foizi*

17. Yurtimizda arab imlosidan voz kechilib, lotin yozuviga o'tilganidan necha yil o'tib lotin yozuvidan kirill asosidagi o'zbek yozuviga o'tilgan?

A) *16 yil* B) *5 yil* C) *8 yil* D) *11 yil*

18. Quyida keltirilganlardan Fransiya tarixida Parij Kommunasi tuzilgan yillari belgilang.

1) 1789-yil; 2) 1795-yil; 3) 1799-yil;  
4) 1848-yil; 5) 1871-yil; 6) 1875-yil.  
A) 3, 5 B) 1, 4 C) 3, 6 D) 1, 5

19. Quyidagi yangilik va ixtirolardan qaysilari Xitoy nomi bilan bog'liq?

1) porox; 2) suv soatlari; 3) kompas;  
4) pantomima; 5) seysmograf; 6) shaxmat;  
7) kitob bosish dastgohi; 8) globus;  
9) qog'oz; 10) mavsumga qarab kiyinish tartibi.  
A) 1, 3, 5, 6, 9, 10 B) 1, 3, 4, 5, 7, 9  
C) 1, 2, 3, 6, 8, 9 D) 2, 3, 5, 7, 8, 10

20. Quyidagi terrorchi-tashkilotlarni faoliyat olib borgan davlatlar bilan moslashtiring.

1) "Ku-kluks-klan"; 2) "Oydin yo'l"; 3) "Yer-suv ligasi"; 4) "Musulmon birodalar".  
a) AQSH; b) Buyuk Britaniya; c) Germaniya;  
d) Irlandiya; e) Meksika; f) Misr; g) Peru.  
A) 1-a; 2-e; 3-b; 4-f B) 1-c; 2-g; 3-b; 4-e  
C) 1-a; 2-g; 3-d; 4-f D) 1-g; 2-e; 3-d; 4-f

21. 1991-yil yanvarda AQSH boshchiligidagi xalqaro kuchlar qaysi mamlakatga qarshi "Sahrodag'i bo'ron" operatsiyasini boshlagan?

A) *Quvaytga qarshi* B) *Iraqqa qarshi*  
C) *Turkiyaga qarshi* D) *Eronga qarshi*

22. Buxoro amirligida qo'shinni vaqtı-vaqtı bilan ko'rikdan o'tkazib turish bilan kimlar shug'ullangan?

A) *amir, amir ishtirok eta olmaganida qo'shbegi*  
B) *qo'shbegi, qo'shbegi ishtirok eta olmaganida devonbegi*  
C) *amir, amir ishtirok eta olmaganida devonbegi*  
D) *devonbegi, devonbegi ishtirok eta olmaganida qo'shbegi*

23. XIV asrning 40-yillarida Chig'atoy ulusi nechaga bo'linib ketganligini aniqlang.

A) *4 ga* B) *3 ga* C) *5 ga* D) *2 ga*

24. 1913-yil sentabrda AQSH ishchilari nimalarni talab qilib ish tashlash uyushtirganliklarini aniqlang.

A) *8 soatlik ish kuni joriy etilishi va ish haqini oshirish*  
B) *pensiya joriy etilishi va ish sharoitini yaxshilash*  
C) *7 soatlik ish kuni joriy etilishi va mehnat ta'tilini o'rnatish*  
D) *dam olish kuni joriy etilishi va ish haqini oshirish*





**25.** Quyidagi atamalardan qaysi biri nemischadan olingan?

- A) "festival" B) "galereya"
- C) "skrining" D) "politsiya"

**26.** 2004-yili qayerda buyuk o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiyga haykal o'rnatilgan?

- A) Janubiy Koreyadagi Pusan universiteti hududida
- B) Xitoydagi Uxan universiteti hududida
- C) Yaponiyadagi Soka universiteti hududida
- D) Hindistondagi Rai universiteti hududida

**27.** Dehli sultonligida faoliyat olib borgan qaysi

hukmdorlarning manfaatlari buyuk ajdodlarimiz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburlar bilan to'qash kelgan?

- A) Shamsiddin Eltutmish, Muhammad Tug'luq, Bahlul Lo'diy
- B) Qutbiddin Oyboq, Feruzshoh Tug'luq, Ibrohim Lo'diy
- C) Shamsiddin Eltutmish, Mahmud, Ibrohim Lo'diy
- D) Qutbiddin Oyboq, Mahmud, Bahlul Lo'diy

**28.** 2007-yili AYSESKO tomonidan Islom

madaniyati poytaxti deb e'lon qilingan shaharni belgilang.

- A) Buxoro B) Toshkent C) Samarqand D) Xiva

**29.** Rossiya tarixida "Qonli yakshanba" deb

nom olgan voqeа bo'lib o'tgan sanani aniqlang.

- A) 1825-yil 14-dekabr B) 1941-yil 22-iyun
- C) 1905-yil 9-yanvar D) 1861-yil 19-fevral

**30.** Quyidagi jadvalning qaysi qatorlaridagi ma'lumotlar bir-biriga mos ravishda berilgan?

**Ma'lumotlar:** 1) 1075–1144-yy.;  
2) 970–1011-yy.; 3) Farobi; 4) al-Farg'oniy; 5) "Alfraganus"; 6) "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi"; 7) "hidoyat yo'lining sarboni"; 8) "Muallim us-soniy".

- A) a-1; b-3; c-8; d-6 B) a-2; b-3; c-8; d-7
- C) a-2; b-4; c-5; d-7 D) a-1; b-4; c-5; d-6

Alloma nomi	Yashagan yili	Ulug'langan nomi
Zamaxshariy	a	"Xorazm faxri"
b	797–865	c
Moturidiy	870–944	d

#### TASHKILLOVCHILAR:

@Tarixdan\_Onlayn\_Testlar  
@Tarixiy\_Tasavvur telegram kanallari

